

**MAVZU: HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA YANGI INOVATSION
TEKNOLOGIYALARNI MASHG'ULOTLARGA TADBIQ ETISH (KEYS-
TEKNOLOGIYASINI) QO'LLASH**

**TA'LIMNING KEYS-TEKNOLOGIYASINI LOYIHALASHTIRISH VA REJALASHTIRISH
QOIDALARI**

1. Kursantlar tomonidan keysni echish texnologiyasi.
2. Keys-texnologiyani amalga oshiruvchi o'qituvchi faoliyatining mazmuni va protsessual tuzilmasi.
3. Asosiy bosqich: keys-texnologiyalarini amalga oshirish
4. Ta'lim keys – texnologiyasining ekspertlik bahosi.

1. KURSANTLAR TOMONIDAN KEYSNI ECHISH TEKNOLOGIYASI

Kursantlar tomonidan keysni echish bosqichlari:

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar kursantlarning keysni hal etish texnologiyasi ikki texnologik bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samara olish mumkin:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha *individual (auditoriyadan tashqari)* ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan *birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada)* ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual ish

Kursant mustaqil ravishda:

keys materiallari bilan tanishadi;

taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;

muammo va muammo osti muammolarni ajratadi,

vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;

berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi;

ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;

taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib ishlash

Kursantlar kichik guruhlariga bo'linib, keys bilan birgalikda ishlashadi

guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;

echimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;

muammoli vaziyat echimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;

taqdimotga tayyorlanadi va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Keysni echish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o'tkazish.

muammoli vaziyat echimining o'z variantini taqdim etadi;

tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydi va uning oqilonaligini asoslaydi;

boshqa guruhlar qatnashchilari savollariga javob beradi va o'z takliflarini aniqlashtiradi.

Jamoa bo'lib keys ustidan ishlash:

guruhlar taklif etgan echimlar variantlarini muhokamasi;

taklif etgan echimlarning o'zaro baholanishi.

Taklif etilgan echimlarning xayotiyligi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (kursantlar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

2. KEYS-TEXNOLOGIYANI AMALGA OSHIRUVCHI O'QITUVCHI FAOLIYATINING MAZMUNI VA PROTSESSUAL TUZILMASI

Keys-texnologiyani amalga oshiruvchi o'qituvchi faoliyatining bosqichlari

tayyorgarlik bosqichi

asosiy bosqich: keys-texnologiyalarni amalga oshirish

tahliliy, baholovchi bosqichi

Tayyorgarlik bosqichi

Auditoriyadan tashqarida bajariladigan murakkab ilmiy-tadqiqotchilik, uslubiy va konstruksiyalash faoliyatini o'z ichiga olib, o'qituvchi harakatlarining quyidagi izchilligi bilan bog'liq bo'ladi:

keysni yaratadi (agar tayyor keysdan foydalanilmasa);

ta'lim texnologiyasini loyihalashtiradi va rejalashtiradi;

kursantlarni tayyorlaydi, ularning keys bilan mustaqil ishlashi uchun o'quv va uslubiy ta'minotni ishlab chiqadi.

Keys – texnologiyalarni loyihalashtirish

O'qituvchi harakatlarining izchilligi:

Ishchi dasturi asosida o'quv mashg'uloti shakli, turi va vaqtini belgilaydi (seminar/amaliy mashg'ulot).

O'quv mashg'uloti maqsadini ifodalaydi, o'quv mashg'ulotidan kutiladigan natijalar va pedagogik vazifalarni belgilaydi.

Ta'limning optimal modelini (belgilangan vaqtda va qaror topgan sharoitlarda qo'yilgan maqsadning amalga oshirilishini va prognoz qilinadigan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan optimal ta'lim uslublari, shakllari va vositalari majmui)ni tanlaydi.

Keys – texnologiyalarni loyihalashtirish (davomi)

O'quv vaqt, keys hajmi va tanlangan ta'lim modelini inobatga olib o'quv mashg'ulotining texnologik chizmasini ishlab chiqadi.

Modelni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni belgilaydi:

o'quv vaqti, auditoriyadagi kursantlarning ehtimoliy soni;

auditoriyaning guruhlarda ta'limni tashkil etish, **TTV** va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish uchun imkoniyatlari.

Monitoringni ta'minlaydigan teskari aloqa usullari va vositalarini belgilaydi.

Ta'limdagi yutuqlarni oraliq va yakuniy baholash usullari va vositalarini belgilaydi.

Loyihalashtirish faoliyati natijalarini jadval shaklida rasmiylashtiradi.

Keys – texnologiyalarni loyihalashtirish (davomi)

👉 ***Keys-texnologiyaga asoslangan o'quv mashg'ulotining texnologik chizmasining variantlarini ko'rib chiqamiz***

Keys-stadiga asoslangan o'quv mashg'ulotining texnologik chizmasi

1-variant Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas.

1. Keys bilan yakka tartibda tanishish.

2. Keys bilan jamoa bo'lib ishlash:

2.1. Aqliy hujum - muammoli vaziyatni hal etish g'oyalari generatsiyasi.

2.2. Jamoaning bahosi va ustuvor g'oyalarning tanlanishi.

3. O'qituvchi rezyumesi.

4. Kursantlarning o'quv yutuqlarini baholash

2-variant Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas.

1. Keys bilan yakka tartibda ishlash.
2. Jamoaning muammoli vaziyatni tahlil qilish va hal etish, bunday amaliy vaziyatdagi faoliyat bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan munozarasi.

3. O'qituvchi rezyumesi.

4. Kursantlarning o'quv yutuqlarini baholash

3-variant Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'rtacha o'lchamli.

Keys bilan auditoriyadan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlash.

Auditoriyada ishlash:

2.1. Kichik guruhlarda ishlash: keys bilan yakka tartibda ishlash natijalarini muhokama qilish bo'yicha kichik guruhlardagi ishlar;

jamoaning muammo echimi bo'yicha taklif qilingan muqobil variantlarni tahlil qilishi va baholashi, ustuvor g'oyani tanlashi; muammoli vaziyatni hal etish dasturining ishlab chiqilishi.

2.2. Guruh ishi taqdimoti.

2.3. Muammoli vaziyat echimi bo'yicha taklif etilgan variantlarning jamoadagi muhokamasi.

3. O'qituvchi rezyumesi.

4. Kursantlarning o'quv yutuqlarini baholash

4-variant Keys bilan ishlashga 1 dan ko'proq o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami katta.

Keys echimi bosqichma-bosqich, bir necha mashg'ulotlar davomida va hatto butun o'quv kursi mobaynida o'tkaziladi.

O'qituvchi ushbu o'quv mashg'ulotlaridagi ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish-da keys bilan ishlashning uch variantidan bittasini tanlab olishi va hatto ularni qo'shib yuborishi ham mumkin.

Ta'lim texnologiyasini rejalashtirish

Tanlangan ta'lim modeli va o'quv mashg'ulotining loyihalashtirilgan tuzilishi asosida o'qituvchi ta'lim texnologiyasini rejalashtiradi.

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasini rejalashtirish texnologik xarita ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim texnologiyasini rejalashtirish (davomi)

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasini ilovalariga quyidagilar kiradi:

kursantlar bilimlarini dolzarblashtirish uchun savollar;

kursantlar o'quv ishi jarayonida amal qilishi lozim bo'lgan yo'riqnomalar, qoidalar (masalan, aqliy hujum qoidalari);

o'qituvchi ta'lim jarayonida qo'llanadigan chizmalar, jadvallar va boshqa vizual materiallar;

munozarani o'tkazish uchun qo'shimcha savollar va boshqalar.

☞ *Bu o'rinda taqdim etiladigan materiallar hajmi cheklanmaydi. Lekin ular sig'imli, yaxshi tuzilmalangan va grafik jihatdan rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak*

Keysni echish jarayoniga kursantlarni tayyorlash

Kursantlarning keysda ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha o'quv axborotlarini egallashi amaliy vaziyatni tahlil etish va hal qilishga doir mashg'ulot samaradorligini belgilovchi omillardan biridir.

☞ *Shu sababli keys bilan ishlash o'quv mavzusi tugallanganida yoki uni o'rganish davomida o'tkaziladi –hammasi keys turiga, shu jumladan uning maqsadlari va ish muddatlariga bog'liq bo'ladi.*

Keysni echish jarayoniga kursantlarni tayyorlash(davomi)

Kursantlarning keys-stadi sharoitida o‘quv ishiga qobiliyatlar ko‘rsatkichlari:

har bir kursantning ilmiy tadqiqot va tahlil usullari va vositalarini egallashi;

kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum va munozaralarda qatnashish malakalarini hosil qilish;

kursantlarning muammoli vaziyatni tahlil etish chizmasi (yo‘riqnomasi, algoritmi);

muammo echimining ustuvor g‘oyasini baholash va tanlash texnikalari bilan tanishtirish.

O‘quv v uslubiy materiallarning tayyorlanishi

O‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarlik jarayonida quyidagilarni ishlab chiqish va kursantlarga taklif etish maqsadga muvofiqdir:

kursantlar bilimlarini qat’iy mantiqiy tizimga solish uchun nazariy axborotlarning chizmalar, jadvallar, tuzilmalangan ifodalar shaklidagi qisqacha bayonini o‘z ichiga oladigan o‘quv materiallari;

mustaqil va guruhli ishlash jarayonida amaliy vaziyatni tahlil etish va echishga yoki echish algoritmiga doir yo‘riqnomalar;

O‘quv va uslubiy materiallarning tayyorlanishi(davomi)

aqliy hujum, munozara, kichik guruhlarda ishlash, taqdimotlar qoidalariga ega plakatlar/varaqalar;

«Muammo echimining ustuvor g‘oyasini baholash va tanlash texnikasi» bo‘yicha yo‘riqnomasi o‘quv mashg‘ulotida kursantlarning mazmunli faolligini, keysni yozma echishni *baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari*;

Kichik guruhlarda kursantlarni ishlash jarayonini *o‘zarobaholash matritsasi*.

O‘qituvchining tayyorlanishi

Keys-stadi amaliyotini o‘tkazuvchi o‘qituvchi mashg‘ulotga oddiy tayyorlanishdan tashqari quyidagilarni ham bajaradi:

vaziyatni puxta tahlil qiladi, muammoli vaziyatni tahlil etish va uni hal qilish uchun kursantlarga taklif qilinishi mumkin bo‘lgan bir necha modellarni tayyorlaydi;

vaziyat echimi bo‘yicha kursantlar taklif etadigan variantlarni baholash ko‘rsatkichlari va mezonlarini ishlab chiqadi.

muammoni echish bo‘yicha o‘zining variantini tayyorlaydi.

3. Asosiy bosqich: Keys-texnologiyalarni amalga oshirish

O‘quv mashg‘ulotiga kirish

O‘qituvchining harakatlarini izchilligi:

o‘qituvchi mashg‘ulot mavzusi va maqsadini ma’lum qiladi;

kursantlarning prognoz qilinadigan ta’limdagi yutuqlari ro‘yxatini e’lon qiladi;

o‘quv mashg‘ulotining tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

o‘quv natijalarini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari e’lon qiladi;

kursantlarda bo‘lg‘usi o‘quv faoliyatiga qiziqishni shakllantirish maqsadida keysning vazifasini va uning professional bilimlar va malakalarni rivojlantirishga ta’sirini tushuntirib beradi.

O‘quv mashg‘ulotining asosiy bosqichi

O‘qituvchining harakatlarini izchilligi:

kursantlarning o‘quv mavzusi/kursi bo‘yicha bilimlarini dolzarblashtirish ishidan boshlanadi va bu ish blits-so‘rovnoma yoki savol-javob shaklida o‘tkaziladi.

Kursantlarning auditoriyadagi keys bilan ishini tashkil etishga kirishishda o‘qituvchi keys mavzusi bo‘yicha adabiy manbalardan parchalarni o‘qib berishi, korxona – amaliy

vaziyat ob'ekti – mahsulotlarini namoyish qilishi mumkin – bu vaziyatga oid mashq muammosiga qiziqish uyg'otish yoki yangi g'oyalarni qo'shishning muayyan usulidir.

O'quv mashg'ulotining asosiy bosqichi (davomi)

Keys bilan shundan keyingi ish quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

ish o'quv rejasiga ko'ra ajratilgan vaqtga,

keys o'lchami va uning maqsadlari,

tanlangan ta'lim modeliga,

o'quv mashg'ulotining loyihalashtirilgan texnologik chizmasiga

rejalashtirilgan ta'lim texnologiyasi bilan belgilanadi.

O'quv mashg'ulotining asosiy bosqichi (davomi)

Ushbu bosqichdagi o'quv mashg'uloti texnologik chizmasining bir necha variantlarini keltiramiz:

1-variant

1. Keys bilan yakka tartibda ishlashni tashkil qiladi.

2. Keys bilan jamoa bo'lib ishlashni tashkil qiladi: kursantlarga aqliy hujum o'tkazishni taklif qiladi – keysda taqdim etilgan muammoli vaziyatni hal etish g'oyalari generatsiyasi.

2-variant

1. Keys bilan yakka tartibda ishlashni tashkil qiladi. Shu borada:

1.1. Muammoli vaziyatni tahlil qilish va hal etish bo'yicha chizma/yo'riqnomani tushuntiradi

1.2. Vazifa beradi:

Keys bilan tanishish.

Berilgan vaziyatni o'rganish.

Muammo va muammo osti muammolarni ajratib, izohlash.

Tadqiqot va tahlil usullarni tanlash.

Vaziyatni diagnostikasini va tahlilini o'tkazish. Muammoni echish usul va vositalarini aniqlash va asoslash.

Taklif qilinyapgan muammoli vaziyatning echimini amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Jamoaning muammoli vaziyatni tahlil qilish va hal etish, bunday amaliy vaziyatdagi faoliyat bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan jamoa munozarani tashkil qiladi.

3-variant

1. Keys bilan auditoriyadan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlashni tashkil qiladi. shu borada:

1.1. Amaliy vaziyatni tahlil qilish va echish bo'yicha chizma-yo'riqnomani tushuntiradi.

1.2. Har bir kursantga keys va vazifalarni beradi:

keys bilan tanishish; berilgan vaziyatni o'rganish; muammo va muammo osti muammolarni ajratish; tadqiqot va tahlil usullarni tanlash; vaziyatni diagnostikasini va tahlilini o'tkazish; muammoni echish usul va vositalarini aniqlash va asoslash; taklif qilinyapgan muammoli vaziyatning echimini amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish.

keys bilan ishlash natijasini yozma ravishda taqdim etish.

1.3. Yozma ishni amalga oshirish qoidalari (talablari) va uni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3-variant (davomi)

2. Keys bilan auditoriya ishini olib boradi:

2.1. Keysni echish bo'yicha kichik guruhlarini faoliyatini tashkil qiladi:

Kursantlarni kichik guruhlariga bo'ladi,

kichik guruhlarda ishlash qoidalari, munozara qatnashchisining eslatmasi bilan tanishtiradi (eslatadi);

amaliy vaziyatni tahlil qilish va echish bo'yicha guruhli ishning yo'riqnomasini tushuntiradi;

muammo echimining ustuvor g'oyasini baholash va tanlash texnikasi bilan tanishtiradi,

vaziyat, muammo va uning echish usullari bo'yicha guruh a'zolarining har xil ta'savurlarini muhokamani boshlashni taklif qiladi.

2. Kichik guruhlar ishi natijasini taqdimotini tashkil qiladi.

Taklif qilingan echimlarni haqiqiylik va amalga oshiruvchanligini hamkorlikda (kursant va o'qituvchi) baholash mumkin.

O'quv mashg'ulotining yakunlovchi-baholovchi bosqichi

O'qituvchining harakatlarini izchilligi.

mavzu bo'yicha xulosa chiqaradi, kursantlar e'tiborini asosiy jihatga qaratadi;

bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun ahamiyati haqida so'zlaydi;

guruhlar, ayrim kursantlar faoliyatini baholaydi / o'zaro baholashlarga yakun yasaydi;

o'quv mashg'uloti maqsadiga erishganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi.

Keys-texnologiya bo'yicha amaliyot olib boradigan o'qituvchi faoliyatini tahliliy, baholovchi bosqichi

Bu o'qituvchining auditoriyadan tashqari faoliyati bo'lib, u quyidagi harakatlar izchilligidan iborat bo'ladi:

o'tkazilgan mashg'ulot tahlili va baholanishi;

keysning ta'limdagi samaradorligini baholash;

ta'lim texnologiyasiga o'zgartishlar kiritish (zarur bo'lganida).

4. Ta'limning keys – texnologiyasini ekspertlik bahosi

Ta'limning keys-texnologiyasini baholanishi ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi, uning natijalari esa Ekspertlik bahosi varag'iga yozib qo'yiladi.

Ekspertiza tugallanganidan keyin shunday xulosa chiqariladi:

1) texnologiya eksperimental sinov uchun tavsiya qilinadi yoki.

2) texnologiya qo'shimcha ishlanganidan keyin eksperimental sinov uchun tavsiya qilinadi, yoki...

3) texnologiyaga yana qo'shimcha ishlov berish va yana ekspertizaga taqdim etish tavsiya qilinadi.

QO'SHINLARNI KUNDALIK FAOLIYATINI

BOSHQARISH SIKL BOSHIG'I

podpolkovnik

U. Soibnazarov